Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 347
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

FUQAROLIK JAMIYATI RIVOJIDA SAXOVAT VA XAYRIYANING O'RNI

Irodaxon Xabibulayevna Badalbayeva*
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti "Gumanitar" fanlar kafedrasi assistenti (PhD)
✉ behimro0307@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda saxovat va xayriya institutlarining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati tahlil qilinadi. Saxovat va xayriyaning milliy qadriyat sifatida shakllanishi, jamiyatda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashdagi o'rni hamda davlat va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligi ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Tadqiqot natijalari saxovat va xayriya faoliyatining fuqarolik jamiyati barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar

fuqarolik jamiyati, saxovat, xayriya, ijtimoiy birdamlik, nodavlat notijorat tashkilotlari, ijtimoiy mas'uliyat, insonparvarlik.

DOI: 10.5281/zenodo.21743767

Kirish.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bugungi demokratik taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bunda davlat va jamiyat o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, aholining ijtimoiy faolligini oshirish hamda insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday qadriyatlardan biri – saxovat va xayriyadir. Bejizga prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev - "Xalqimizga xos mehr-oqibat, saxovat va bag'rikenglik fazilatlarini yanada mustahkamlash eng muhim vazifalarimizdan biridir." deb, aytmagan [3, B-2]. O'zbekiston tarixida saxovat va xayriya xalqning ma'naviy hayoti, diniy qarashlari va milliy qadriyatlarining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Mahalla ins titutlari, vaqf tizimi, hashar an'analari, mehr-muruvvat tadbirlari jamiyatda ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qilgan. Bugungi kunda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida xayriya fondlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va ko'ngillilar harakati tobora muhim o'rin egallamoqda. Shu sababli saxovat va xayriyaning fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi o'rnini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir.

Fuqarolik jamiyati rivojlanishining muhim mezonlaridan biri jamiyat a'zolarining ijtimoiy faolligi, o'zaro ishonchi va ijtimoiy mas'uliyat darajasi hisoblanadi. Ana shunday omillarni shakllantirishda saxovat va xayriya alohida ijtimoiy institut sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Anne Frankning "Hech kim saxovat qilish orqali kambag'al bo'lib qolmagan" degan fikri xayriyaning nafaqat moddiy, balki ma'naviy boylik manbai ekanligini ko'rsatadi[8, B-298]. Shuning uchun ham ushbu qadriyatlar nafaqat moddiy yordam ko'rsatish vositasi, balki jamiyatda hamjihatlik, insonparvarlik va fuqarolik mas'uliyatini qaror toptiruvchi ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy fuqarolik jamiyati konsepsiyasida davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar sheriklik tamoyiliga asoslanadi. Robert Putnam ta'kidlaganidek, ijtimoiy kapitalning asosiy unsurlaridan biri fuqarolar o'rtasidagi ishonch va hamkorlikdir. Saxovat va xayriya ana shu ijtimoiy kapitalni mustahkamlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi [4, B-167]. Bunday sharoitda nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, xayriya jamg'armalari va ko'ngillilar harakati ijtimoiy muammolarni hal etishda davlatning muhim hamkoriga

aylanmoqda. Tocqueville aytganidek, “Fuqarolarning xayriya jamg‘armalari va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatida ishtirok etishi fuqarolik jamiyatining institutsional rivojlanishiga xizmat qiladi.”[5, 489]. Ularning faoliyati aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, ta’lim va sog‘liqni saqlashni rivojlantirish, ekologik muammolarni bartaraf etish hamda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston sharoitida saxovat va xayriya azaldan milliy qadriyat va ma’naviy merosning ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Mahalla institutining faoliyati, hashar an’analari, mehr-oqibat va o‘zaro yordam tamoyillari fuqarolik jamiyatining tarixiy ildizlarini namoyon etadi. So‘nggi yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar natijasida xayriya faoliyatining huquqiy asoslari mustahkamlanib, nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoatchilik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari takomillashmoqda. Bu esa fuqarolarning ijtimoiy tashabbuslarini rag‘batlantirish va jamiyatning o‘zini o‘zi boshqarish salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, saxovat va xayriya faoliyatining samaradorligi aholining fuqarolik madaniyati, huquqiy ongi va ijtimoiy mas’uliyat darajasiga bevosita bog‘liq. Fuqarolar, tadbirkorlik subyektlari hamda jamoat tashkilotlarining ijtimoiy loyihalarda faol ishtiroki jamiyatda ishonch muhitini mustahkamlaydi, ijtimoiy tengsizlikni kamaytiradi va ijtimoiy birdamlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, xayriya faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, mablag‘lardan samarali foydalanish hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish ushbu sohaning barqaror rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Shu o‘rinda Fukuyamaning “Jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri – ishonchdir. Ishonch yuqori bo‘lgan jamiyatlarda fuqarolik institutlari samaraliroq faoliyat yuritadi”degan fikrlarining ahamiyati ortadi. [6, B-26].

Xalqaro tajriba ham fuqarolik jamiyati rivojlangan davlatlarda xayriya institutlari ta’lim, sog‘liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat va ijtimoiy himoya sohalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynayotganini ko‘rsatadi. Bunday tajribalarning milliy sharoitga mos ravishda tatbiq etilishi fuqarolik jamiyatining institutsional asoslarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Demak, saxovat va xayriya fuqarolik jamiyatining nafaqat ma’naviy-axloqiy asosi, balki uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlovchi muhim institutlardan biri hisoblanadi. Ularning rivojlanishi davlat, fuqarolik jamiyati institutlari, biznes sektori va fuqarolar o‘rtasidagi samarali hamkorlikni kuchaytirish orqali jamiyatning barqaror taraqqiyotiga, inson kapitalini rivojlantirishga hamda ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, saxovat va xayriya fuqarolik jamiyatining muhim ma’naviy qadriyatlaridan biri bo‘lib, ular aholining ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas’uliyatini oshiradi. Bunda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishda xayriya muhim omil hisoblanadi. Ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi ham saxovat tamoyillarini keng qo‘llash orqali oshadi. Shu boisdan ham fuqarolik jamiyatini rivojlantirish strategiyalarida saxovat va ko‘ngillilik madaniyatini yanada qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2.O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
4. Putnam R.D. Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. New York: Simon & Schuster, 2000.
5.Tocqueville A. Democracy in America. Chicago: University of Chicago Press, 1995.
6. Fukuyama F. Trust: The Social Virtues and the Creation of Prosperity. New York: Free Press, 1995.
7. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
8. Anne Frank. The Diary of Young Girl. - Definitive Edition, - New York: Bantam Doubledey Dell Publishing Group Inc, 1995.
9. Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi.
10. Beruniy A.R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar.